

KAMBAG‘ALLIK TUSHUNCHASI VA UNI QISQARTIRISHGA OID NAZARIY
YONDASHUVLAR

Ro‘ziboyeva M.O.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16261503>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kambag‘allik tushunchasi, uning mohiyati va turlari tadqiq qilingan, shu bilan birga, kambag‘allikning kelib chiqish sabablari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o‘rganilgan. Kambag‘allikni qisqartirish borasida xalqaro hamda mahalliy iqtisodchilarning zamonaviy nazariyalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Kambag‘allik, kam ta‘minlanganlik, kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy himoya, inson kapitali.

Аннотация. В данной статье исследованы понятие бедности, её сущность и виды. Кроме того, рассмотрены причины возникновения бедности и их социально-экономические последствия. Проанализированы современные теории сокращения бедности, представленные как международными, так и отечественными экономистами.

Ключевые слова: Бедность, малообеспеченность, сокращение бедности, социальная защита, человеческий капитал.

Abstract. This article explores the concept of poverty, its essence, and its various types. It also examines the causes of poverty and their socio-economic consequences. Furthermore, the article analyzes contemporary theories proposed by both international and local economists regarding poverty reduction.

Keywords: Poverty, low-income status, poverty reduction, social protection, human capital.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida turli moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy inqirozlarning kuchayishi, mamlakatlar o‘rtasida turli savdo munosabatlarining keskinlashuvi natijasida dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning cheklanishi kabi jarayonlar yuzaga kelmoqda. Bu esa, dunyoning ko‘pgina milliy iqtisodiyotlarida YaIM o‘shishining sekinlashuvi, real daromadlarning pasayishi, ijtimoiy tabaqalanishning chuqurlashuvi va qashshoqlikning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Umuman olganda, kambag‘allik- muayyan maqbul turmush darajasini ta‘min eta olmaslik bo‘lib, ma‘lum bir shaxs yoki oilaning zaruriy ehtiyojlari darajasining ularni qondirish imkoniyatlaridan oshib ketishini anglatadi. Har bir shaxs yoki ijtimoiy guruhning iqtisodiy ahvoliga xos xususiyat bo‘lgan kambag‘allik insonlarning hayot, mehnat qobiliyatini asrash va o‘zidan avlod qoldirish uchun zarur bo‘ladigan minimal ehtiyojlarning ma‘lum miqdorini qondira olishini nazarda tutadi. “Kambag‘allik” nisbiy va noaniq tushuncha bo‘lib, ma‘lum bir jamiyatdagi umumiy turmush darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Fikrimizcha, u mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, kishilarning iste‘moli va daromadidan kelib chiqib alohida belgilanadi[1]. Kambag‘allik bugungi kunda dunyodagi eng keskin ijtimoiy muammolardan biriga aylandi. Turli mamlakatlardagi siyosiy partiyalar, hukumatlar va jamiyatning barcha qatlamlari kambag‘allik masalasiga doimo katta ahamiyat berib kelgan[2].

Xalqaro tashkilotlar — Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, BMT Taraqqiyot Dasturi — kambag‘allikni aniqlashda asosan kunlik daromad mezonlari (1,90 dollar, 3,20 dollar va boshqalar) hamda ijtimoiy infratuzilma (ta‘lim, sog‘liqni saqlash, sanitariya) ko‘rsatkichlariga

e'tibor qaratishadi. O'zbekistonda esa tarixan "kam ta'minlanganlik" me'yori ijtimoiy nafaqa oluvchi aholini farqlashda qo'llanilib, "kambag'allik" atamasi rasmiy hujjatlarda kamdan-kam uchragan. Biroq 2020-yildan boshlab rasmiy siyosat darajasida "kambag'allikni qisqartirish" ustuvor vazifa sifatida e'lon qilinishi, 2023-yilda xalqaro ekspertlar hamkorligida "ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi" elementlarini joriy qilish bo'yicha ishlar boshlanganligi ushbu masalada yangicha metodik yondashuv shakllanayotganidan dalolat beradi[3].

Jahon bankining 2000-2001-yillardagi Jahon taraqqiyoti hisobotida kambag'allik tushunchasiga keng yondashilgan. Hisobotda aytilishicha, moddiy mahrumlik, ta'lim va sog'liqni saqlashning salbiy darajasiga qo'shimcha ravishda, kambag'allik xavf-xatarlar, shu bilan birga, o'z ehtiyojlarini ifoda eta olmaslik va ta'sirning yetishmasligini ham o'z ichiga oladi. Kambag'allikning sabablariga ko'ra uni umumiy kambag'allik, institutsional kambag'allik, mintaqaviy kambag'allik ba sinfiy kambag'allikka bo'lish mumkin.

Umumiy kambag'allik - iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning past darajasidan kelib chiqadigan kambag'allik. Masalan, ibtidoiy jamiyatda mahsuldorlikning past darajada rivojlanganligi, ishlab chiqarish faoliyati to'liq rivojlanmaganligi, oziqovqat juda kam bo'lganligi sababli ibtidoiy odamlar haqiqatda keng kambag'allik sharoitida yashagan.

Institutsional kambag'allik- ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlar tomonidan belgilanadigan turli jamoalar, mintaqalar, ijtimoiy guruhlar va shaxslar o'rtasida turmush resurslarining teng bo'lmagan taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lib, muayyan jamoalar, mintaqalar, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning kambag'allik holatida bo'lishiga olib keladi.

Mintaqaviy kambag'allik – og'ir tabiiy sharoit va ijtimoiy rivojlanishning past darajasi tufayli yuzaga keladigan kambag'allik hodisasi. Mamlakatimning qishloq aholisining kambag'al taqsimlanishi aniq mintaqaviy xususiyatlarga ega va ular tabiiy sharoiti nisbatan og'ir bo'lgan bir qator hududlarda to'plangan.

Sinfiy kambag'allik deganda ayrim shaxslar, oilalar yoki ijtimoiy guruhlarining jismoniy tayyorgarligi, ma'lumot darajasi pastligi, oiladagi mehnat resurslarining kamligi, ishlab chiqarish vositalari va ijtimoiy munosabatlarning etishmasligi tufayli yuzaga kelgan kambag'allik tushuniladi.

Kambag'allik — bu insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini (ovqat, kiyim-kechak, turar joy, ta'lim va tibbiyot) qondirishga yetarli resurslarga ega bo'lmalik holatidir. Jahon miqyosida kambag'allikni o'rganish muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri hisoblanadi.

1-jadval

Kambag'allikning asosiy sabablari

T/r	Kambag'allikning sabablari	Ularining tavsifi
1	Iqtisodiy omillar	Ish o'rinlari yetishmasligi, iqtisodiy beqarorlik, past mehnat haqi, ishlab chiqarishning sustligi
2	Ta'lim va malaka yetishmovchiligi	Savodsizlik, kasbiy malakaning pastligi, yuqori daromadli ishga joylasha olmaslik
3	Sog'liqni saqlashdagi muammolar	Sog'liq bilan bog'liq muammolar sababli ishga layoqatsizlik yoki ishdan chetda qolish
4	Institutsional va siyosiy omillar	Korrupsiya, tengsizlik, resurslar adolatsiz taqsimoti, hukumat siyosatidagi nomuvofiqlik

5	Mintaqaviy farqlar	Qishloq joylarda infratuzilmaning pastligi, xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi
---	--------------------	--

Yuqoridagi sabablardan kambag'allikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari kelib chiqadi va uni quyidagicha tavsiflaymiz:

Kambag'allik jamiyatning barcha qatlamlariga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. U nafaqat ayrim shaxslar yoki oilalar darajasida, balki butun jamiyat va davlat iqtisodiyoti miqyosida jiddiy oqibatlarga olib keladi.

Birinchidan, kambag'allik aholining katta qismini hayot uchun zarur bo'lgan asosiy xizmatlar – ta'lim, sog'liqni saqlash, turar joy, oziq-ovqat xavfsizligi va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash imkoniyatidan mahrum qiladi. Bu esa inson kapitalining rivojlanishini cheklaydi.

Rivojlanmagan inson kapitali esa iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi, chunki malakali va salomat ishchi kuchi yetishmaydi.

Ikkinchidan, kambag'allik ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtiradi. Kambag'allikda yashovchi aholining imkoniyatlari cheklangan bo'lgani sababli ular jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok eta olmaydi. Bu esa ijtimoiy ajralish, qatlamlar o'rtasidagi ziddiyatlar va beqarorlik xavfini oshiradi. Kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda jinoyatchilik, norozilik namoyishlari va ekstremistik kayfiyatlarning kuchayishi kuzatiladi.

Uchinchidan, kambag'allik migratsiyani kuchaytiradi. Ish va yaxshiroq yashash sharoitlarini izlab, kambag'al hududlardagi aholining katta qismi shaharlarga yoki boshqa mamlakatlarga ko'chishga majbur bo'ladi. Bu esa demografik muvozanatning buzilishi, mehnat bozorida keskin raqobat va shaharlarda ijtimoiy infratuzilmalarga ortiqcha yuk tushishiga olib keladi.

To'rtinchidan, kambag'allik davlat byudjetiga bosimni kuchaytiradi. Ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish, nafaqalar, subsidiya va yordam dasturlariga ajratiladigan mablag'lar ko'payadi. Shu bilan birga, past daromadli qatlamlardan tushadigan soliq hajmi kamayadi, bu esa umumiy byudjet tushumlarining kamayishiga olib keladi.

Beshinchidan, kambag'allik iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi. Iste'molchilar soni ko'p bo'lishiga qaramay, ularning to'lovga layoqatliligi past bo'ladi. Bu esa ichki bozorning faollashuviga to'sqinlik qiladi, tadbirkorlik va investitsiyalar uchun noqulay muhit yuzaga keladi[4].

Kambag'allikni qisqartirish masalasi xalqaro hamda mahalliy iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida turli yondashuvlar bilan o'rganilib kelinmoqda. Kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy himoya, inson kapitali va barqaror rivojlanish konsepsiyalari doirasida olib boriladi. O'zbekiston sharoitida kambag'allikni qisqartirish masalasi bir necha mahalliy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xolbekov M.B. (2019) - "O'zbekiston iqtisodiyoti va kambag'allik darajasini qisqartirish". Xolbekov o'z tadqiqotida O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan strategik dasturlar va ularning samaradorligini tahlil qiladi. U kambag'allikni qisqartirishda inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda iqtisodiy islohotlar va ular natijasida ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi o'rganilgan. Rustamov A.X. (2020) - "O'zbekiston hududiy kambag'allik tahlili". Rustamov hududiy kambag'allik farqlarini aniqlashda ko'p o'lchovli yondashuvlardan foydalanadi. Tadqiqotda qishloq va shahar kambag'allik darajalari qiyoslanib, iqtisodiy o'sish sur'atlari va ijtimoiy himoya dasturlarining o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi.

Tursunov B.R. (2021) - "Kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy himoya tizimining roli". Muallif ijtimoiy himoya tizimining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyatini tadqiq etadi va davlat dasturlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni taklif etadi. Ravallion Martin (2016) - "The Economics of Poverty: History, Measurement, and Policy". Ravallion kambag'allikni qisqartirishda iqtisodiy siyosatning roli va unga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil qiladi. Muallif kambag'allikni qisqartirish bo'yicha dunyo tajribasini umumlashtirgan va kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan samarali strategiyalarni taklif etgan. Deaton Angus (2013) - "The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality". Deaton kambag'allik va notenglikni qisqartirishda sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarining rivojlanishi muhimligini ta'kidlaydi. U iqtisodiy rivojlanish bilan birga hayot sifati ko'rsatkichlarini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi. Yuqoridagi adabiyotlardan kelib chiqib, kambag'allikni qisqartirishda nazariy qarashlar va zamonaviy yondashuvlarning muhimligi oydinlashadi. Mahalliy olimlar asosan O'zbekiston sharoitiga mos yondashuvlarni taklif etishsa, xorijiy olimlar kambag'allikning ko'p qirrali tabiatini chuqur tahlil qilgan. Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar kambag'allikni nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida, balki inson kapitali va imkoniyatlar nuqtai nazaridan ham baholash lozimligini ko'rsatadi[5].

Shunday qilib, kambag'allikni qisqartirish masalasi zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Kambag'allikning turli nazariy qarashlari va zamonaviy yondashuvlari kambag'allikning murakkab tabiatini to'liq yoritib berishga yordam beradi. Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish yo'nalishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarining olidini olish uchun uni qisqartirishning ta'sirchan vositalarini amaliyotga joriy etish, uni hisoblashning mezon va usullarini hamda uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqish kabi qator vazifalar belgilab berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Academic research in modern science. International scientific-online conference
2. "Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari" (E)ISSN: 2181-1784 4(21), May, 2024 www.oriens.uz
3. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/s
4. Xurramov I.X. (2021). Kambag'allik: nazariy asoslari va uni qisqartirish omillari. Toshkent: Iqtisodiyot.
5. "Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №1(21) 2025